

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021. Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATYAKUBOVA SHAXODAT XAMIDJANOVNA

**“V-XI ASRLARDA XORAZM VOHASIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY
MUNOSABATLAR TARIXI”**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna

V-XI asrlarda Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi.....3

Матякубова Шаходат Хамиджановна

История социально-экономических отношений в Хорезмском оазисе в V-XI веках.....23

Matyakubova Shakhodat Xamidjanovna

The history of socio-economic relations in the Khorezm oasis in the 5th-11th centuries.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications49

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021. Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATYAKUBOVA SHAXODAT XAMIDJANOVNA

**“V-XI ASRLARDA XORAZM VOHASIDAGI IJTIMOYIY-IQTISODIY
MUNOSABATLAR TARIXI”**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Tar 2077 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxamatovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshov Bahodir Jo'raqulovich
Tarix fanlari doktori, professor

Turganov Baxit Kurbanbayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq
gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" iyun soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1791 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "05" iyun kuni tarqatildi.

(2025 yil "03" iyun dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi.)



M. K. Saribaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., dotsent

X. X. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD., dots.

U. I. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t. f. d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'sirida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro uyg'unlashuv boshlanib, milliy o'ziga xoslik jihatlari kamayib borayotgan bir paytda, har bir davlatning o'ziga xos taraqqiyotini o'rganish, tahlil qilish, millatlarning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq tarixini chuqur o'rganish va targ'ib qilish ijtimoiy fan sohalarining dolzarb masalalaridan biriga aylangan. YUNESKO jahon miqyosidagi nodir tarixiy asar, arxeologik yodgorliklar, noyob arxitektura obidalari va nomoddiy meroslarni chuqur o'rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish kabi masalalarga e'tibor qaratib, bu borada salmoqli ishlarni olib bormoqda.

Dunyo miqyosida ro'y berayotgan yirik siyosiy, iqtisodiy jarayonlar davlatlarning ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bunday sharoitda milliy madaniyatni saqlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga qoldirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixini tadqiq qilishda yangi metodologik nazariyalar asosida tarixning ko'plab yoritilmagan sahifalari tiklanib, tarixning ochilmagan tomonlarini yoritishga harakatlar kuchaygan va o'tmishning har bir jihatni rekonstruksiya qilish, 3D formatlarini yaratish orqali tarixni ob'ektiv va jonli tarzda ifodalash, chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekistonda moddiy, ma'naviy merosni chuqur o'rganish, tahlil qilish, saqlash, restavratsiya, rekonstruksiya qilish orqali hududlarning turistik salohiyatini oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq chora tadbirlar belgilangan¹. Bunda kamida uchta noyob nomoddiy merosni YUNESKO ro'yxatiga kiritish, 30 dan ortiq nomoddiy meros elementlarini chuqur ilmiy tadqiq qilish, 158 ta madaniy meros ob'ektini asrashga doir ishlarni bajarish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-avgustdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risida" Farmoni, 2018-yil 16-yanvar F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros ob'ektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 119-sonli qarorlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, madaniy merosini ilmiy o'rganish, targ'ib qilish kabi fan va ta'lim sohalariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi².

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "“Ўзбекистон-2030 стратегияси” тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3107036>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "“Ўзбекистон-

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. V-XI asrlarda Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixini o‘rganish darajasini biz uch guruhga ajratib tahlil qilamiz:

1. Yozma manbalar asosidagi tadqiqotlar;
2. Arxeologik tadqiqotlar;
3. Numizmatik tadqiqotlar.

Yozma manbalar asosidagi tadqiqotlar. Xorazmning milodiy V-VI asrlarga oid tarixi yozma manbalarda deyarli saqlanib qolmagan. Yunon, xitoy, fors, arman, suriya manbalarida Xorazm faqat ma’lum bir voqea tufayli eslatib o‘tilgan. Bu davr tarixi Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida berilgan³. Unda Afrig‘iyalar davrida hukmron bo‘lgan sulolalarning ismlari, olib borgan siyosatlari, urf-odatlar, bayramlari, yil, oy, kunlarning nomlari qayd etilgan.

Arab va fors yozma manbalarida Xorazmning arablar tomonidan bosib olinishi jarayoni bo‘yicha ko‘proq ma’lumotlar mavjud. Bu yozma manbalar orasida At-Tabariyning “Tarix ar-rusul ma-l-muluk” (Payg‘ambarlar va podsholar tarixi), Abu Bakr al-Balazuriyning “Kitob al-futun al-buldon” (Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob) muhim ahamiyat kasb etadi⁴. Bu yozma manbalar V.B.Xenning, S.P.Tolstov, V.I.Vaynberg, E.V.Rtveladze va G‘.Boboyorov tomonidan tahlil etilgan. Bu masala tadqiqot ishining I.1 bo‘limida keng yoritilgan.

Arxeologik tadqiqotlar. Ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklarni o‘rganish XX asrning 40-50 yillarida S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan. XX asrning 40-yillarida ilk o‘rta asrga oid yodgorliklar Burgutqal’a vohasi hududidan topilgan⁵. Bu vohadan ilk o‘rta asrlarga oid 100 ga yaqin yodgorlik topilgan. XX asrning 60-80 yillarida ilk o‘rta asrlarning qishloq

2030 strategiyasi” tўg‘risida”gi ПФ-158-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги “Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўг‘risida” ги ПФ-5623 сон Фармони. [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/4154818>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўг‘risida”ги Ф-5181-сон Фармойиши [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3506332>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги “Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўг‘risida” ги 119–сонли Қарори // <https://lex.uz/docs/5320217>.

³ Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). Ж.И. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2020. – 624 б.

⁴ История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: “Фан”, 1987.; Ал-Белазури. Китоб футух ал-булдан (текст 431) // Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т. 1. – М. – Л., 1939.

⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.; Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации. – М. – Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1948. – 328 с.; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – 324.; Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ. XIV. – Москва: Наука, 1984. – 304 с.; Итина М.А., Левина Л.М., Незарик Е.Е., Рапопорт Ю.А. К 60 – ти летию Хорезмской археолого – этнографической экспедиции. // Этнографическое образование, 1996, – № 6. – С. 34-44.

jamoasi tarixi Ye.E.Nezarik tomonidan o'rganilgan⁶. Burgutqal'a vohasidagi Yakka-Parson qo'rg'onida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari keng yoritilgan.

S.P.Tolstov arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk o'rta asrlarni quyidagicha xronologik davrlarga ajratib ko'rsatgan: III-V asrlarni kushon-afrigiy davri, VI-IX asrlar afrig'iylar davri, IX-XI asrlarni afrig'iy-sosoniylar davri deb ajratib, ularning xarakterli tomonlarini ko'rsatib bergan⁷. Kushon afrig'iylari davri boshlanishi bilan, ya'ni III asrning oxirlari va IV asrlarning boshlarida Xorazm iqtisodiy hayotining tanazzuli, sopollar idishlar sifatining tushib ketishi kuzatilgan, tadqiqotchilar bunday tushkunlikni mintaqaga xion qabilalarining kirib kelishi bilan bog'laydilar⁸. Antik davrda asos solingan shaharlar hayot ilk o'rta asrlarda ham davom etgan. Bunday shaharlarning ko'pchiligi arxeolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan va monografik ishlar nashr qilingan⁹. Ilk o'rta asrlarga oid bunday ishlarning tadqiqoti o'z navbatida o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yanada chuqurroq ilmiy asosda o'rganishga imkon beradi.

Arxeologik tadqiqotlar bilan mavzuning yoritishi dissertatsiyaning I.3 va II.1 bo'limlarida keng tahlil qilingan. Burgutqal'a vohasidagi arxeologik yodgorliklar 2022-yilda Rossiya olimlari tomonidan statistik uslub asosida Burgutqal'a vohasining fazoviy-iqtisodiy strukturasi tadqiq qilindi. Uning asosida vohaning chizmasi ishlab chiqildi¹⁰.

Tadqiqotlari numizmatik tadqiqotlar. Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijasi topilgan tangalar ilk o'rta asrlar tarixining ko'pgina jihatlarini aniqlash imkonini bergan. Bu tangalar dastlab S.P.Tolstov tomonidan XX asrning 40 yillarida tadqiq qilingan¹¹. Bunda qadimgi Xorazm tangalaridagi tasvirlar, yozuvlarini tadqiq qilish birga afrig'iylar davriga oid tangalar tahlili ham berilgan. Ilk o'rta asrlarga oid tangalar B.I.Vaynberg tomonidan maxsus tadqiqot doirasiga tortilgan¹². Bu tadqiqot ishining ahamiyati bugungi kunda juda yuqori sanaladi. Olima Xorazm vohasidan topilgan mil. avv. II-I asrlardan VIII asrning oxirlari IX boshlarigacha bo'lgan tangalarni tahlil qilgan. Tangalarni yozma manbalardagi ma'lumotlarni qiyosiy solishtirgan va tangalardagi tasvirlar, undagi yozuvlarni keng va chuqur tahlil qilgan¹³. Ilk o'rta asrlarga oid turlarga ajratib, ularning 14 ta turini

⁶ Неразик Е.Е. Раскопки в Якка-Парсане // МХЭ. Вып. 7. – М.: Наука, 1963.; Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма. – М.: Наука, 1966.; Неразик Е.Е. Поселение и жилище Хорезма как исторический источник для исследования семьи в I-XIV вв. н. э. // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978.; Неразик Е.Е. Усадьба в Якка-Парсанском оазисе. / Приаралье в древности и средневековье. К 60-летию Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – М.: Восточная литература. РАН. 1988. – С. 173-186.; Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи. – М.: Гриф и К., 2013.

⁷ Толстов С.П. Древний Хорезм... – С. 33.

⁸ Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. – С. 122-124.

⁹ Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: Фан. 1964. – 176 с.; Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ. XIV. – Москва: Наука, 1984. – 304 с.; Садуллаев Б.П. Чап киргоқ Кат-қалъа Хоразмининг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. – Урганч. "MILLENIUMUS PRINT" MCHJ. 2023. 164, иллюст.

¹⁰ Болелов С.Б., Коврижкина М.М., Никифоров М.Г. Количественная оценка топографии Беркут-калинского оазиса (Хорезм) применительно к целям историко-археологических исследований. Восток (Oriens). 2022. – № 3. – С. 63-76.

¹¹ Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // Вестник древней истории. 1938, – № 4.

¹² Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука. 1977. – 303 с.

¹³ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – 146 с.

aniqlagan, ularning tashqi ko‘rinishi deyarli bir-biriga yaqin bo‘lganligini asoslagan. Ulardagi o‘zgarishlarni bir sulolaga mansub, turli xonadon vakillariga tegishli degan xulosani bergan¹⁴.

XXI asrning birinchi yarmida Xorazm vohasidan topilgan tangalar E.V.Rtveladze tomonidan tahlil qilingan. Akademik E.V.Rtveladze tangalardagi shohlarning ismlari bilan yozma manbalardagi ma’lumotlarni tahlil qilib, tangalarda yozilgan “Vazamar” bu “Afrig” ekanligini asoslagan¹⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Urganch davlat Universitetining tadqiqot rejalari bilan bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi V-XI asrlarda Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixining yozma manbalardagi bayoni va tarixshunosligi masalalarini yoritish;

Abu Rayxon Beruniy asarida sulolalar boshqaruvi va ijtimoiy turmush tarzi talqini masalasini yoritish;

arxeologik tadqiqotlarda ijtimoiy turmush tarzining yoritilishi;

Afrig‘iyalar sulolasi hukmronligi va bu davr tadqiqoti bilan bog‘liq masalalarini yoritish;

aholining urf-odati va uning moddiy manbalarda yoritilishni o‘rganish;

V-XI asrlardagi siyosiy jarayonlarning Xorazm hududiga ta’siri masalalarini o‘rganish;

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojida dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligining o‘rni masalasini ko‘rib chiqish;

hunarmandchilik tarmoqlari va ularning arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganilish darajasini aniqlash.

Tadqiqot obyekti V-XI asrlarga oid Xorazm davlati bo‘yicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va ilmiy tarixiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti sifatida V-XI asrlarda Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tarixiy-qiyoslash tahlil, analiz, sintez, xronologik, tizimli yondoshuv, tavsiflash kabi uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Afrig‘iyalar sulolasi vakillari tamg‘alarining yuedji tangalaridagi tamg‘alar bilan o‘xshashligi asosida afrig‘iyalar turkiy sulola vakillari bo‘lishi mumkin degan g‘oya dalillandi shuningdek Xorazm vohasidagi har bir shahar hokimi o‘zini “shoh” unvoni bilan ataganligi aniqlandi;

Ilk o‘rta asrlarda Eron sosisonlari tasiriga tushmasdan Xorazm o‘zining qadimiy urf odat va an‘analarini saqlab qolganligi shuningdek bu davrda Xorazm davlatining

¹⁴ O‘sha asar... C.282.

¹⁵ Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013.; Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.1. / Масъул муҳаррирлар: Э.В.Ртвеладзе. Д.А.Алимова. – Тошкент: Akademnashr. 2021. – 552 б.

Baqriya, Sug'd, sharqiy Yevropa, Vizantiya, Xitoy bilan ham aloqalari mavjud bo'lganligi dalillandi;

Xorazm davlati hududidan topilgan tangalar asosida hukmdorlarning ismlari va hukmronlik qilgan davrlari aniqlangan. Bu manbalar yozma manbalar bilan qiyosiy solishtirilib, tamg'alardagi o'zgarishlar asosida afrig'iylarning 700 yil davomida hukmronlik qilgan davrida bir sulolaga mansub turli xil xonadon vakillari hokimiyatda bo'lgan bo'lishlari mumkinligi asoslandi;

Ma'mun II tomonidan 1004-yilda "Ma'mun akademiya" sining tashkil etilishi zaminida Xorazm vohasidagi ilm va fan taraqqiy eta boshlashi natijasida bu hududga boshqa davlatlardan ham ilm ahlining to'planish jarayoni bevosita bog'liqligi dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yozma va arxeologik manbalar asosida V -XI asrlarda Xorazm vohasining iqtisodiy hayotining nazariy rekonstrutsiya masalalari ishlab chiqildi;

tadqiqot davomida yig'ilgan va tahlil qilingan tarixiy – arxeologik, yozma, numizmatik manbalar materiallardan olingan ma'lumotlar hamda ilmiy xulosalardan teleradiokanallarda ko'rsatuvlar tayyorlash, tadbirlar ishlab chiqish, davlat dasturlari ijrosi, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Afrig'iylar sulolasi tarixi" uslubiy qo'llanmasini ishlab chiqishda asos bo'ldi;

ilmiy ish Xorazm vohasining ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda tarixiy ma'lumotlarning manbashunoslik bazasini yanada kengaytirdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida tarix va arxeologiyaning tadqiqot usullari va zamonaviy yondoshuvlarga tayangan holda bajarilganligi, ko'p turdagi yozma, tarixiy va arxeologik adabiyotlardan foydalanganligi, tarixiy, arxeologik materiallar, huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqotning ilmiy natijalaridan "O'zbekiston tarixi" va "Xorazm tarixi"ning ilk o'rta asrlar davrini yozishda, tadqiq qilishda uslubiy yondoshuvlar, nazariy xulosalar va tarix, arxeologiya, numizmatika fanlari yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonning ilk o'rta asrlarga oid madaniy merosini targ'ib qilish, turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan ma'lumotlar bilan boyitish, o'zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, boyitib borish, milliy mafkurani shakllantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, o'zbek xalqi madaniyatiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. V-XI asrlarda Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Afrig'iylar sulolasi vakillari tamg'alarining yuedji tangalaridagi tamg'alar bilan o'xshashligi asosida afrig'iylar turkiy sulola vakillari bo'lishi mumkin degan g'oya dalillandi shuningdek Xorazm vohasidagi har bir shahar hokimi o'zini "shoh" unvoni bilan ataganligi bo'yicha xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 28-martdagi 10/693-son dalolatnomasi). Natijalar Tadqiqotda ilgari surilgan goyalardan Afrig‘iylar sulolasi vakillari tamg‘alarini boshqa hududlardan topilgan tamg‘alar bilan qiyosiy solishtirish va uning ildizini aniqlash imkonini bergan;

Ilk o‘rta asrlarda Eron sasoniylari tasiriga tushmasdan Xorazm o‘zining qadimiy urf odat va an‘analarini saqlab qolganligi shuningdek bu davrda Xorazm davlatining Baqtriya, Sug‘d, sharqiy Yevropa, Vizantiya, Xitoy bilan ham aloqalari mavjud bo‘lganligi dalillanganligi to‘g‘risidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 28-martdagi 10/693-son dalolatnomasi). Natijada, ular teletomoshabinlarning Xorazm vohasi V-XI asrlarga oid tarixiy ma‘lumotlardan tasavvurlarini kengaytirishga imkon bergan;

Xorazm davlati hududidan topilgan tangalar asosida hukmdorlarning ismlari va hukmronlik qilgan davrlari aniqlangan. Bu manbalar yozma manbalar bilan qiyosiy solishtirilib, tamg‘alardagi o‘zgarishlar asosida afrig‘iylarning 700 yil davomida hukmronlik qilgan davrida bir sulolaga mansub turli xil xonadon vakillari hokimiyatda bo‘lgan bo‘lishlari mumkinligi asoslangan natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” teleradiokanali DM tomonidan 2024–2025-yillarda efirga uzatilgan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Millat va ma‘naviyat” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 05-09-450-son ma‘lumotnomasi). Natijalar loyiha doirasida tayyorlangan dastur, monografiya va elektron resurslarni mazmunan boyitish imkonini bergan;

Ma‘mun II tomonidan 1004-yilda “Ma‘mun akademiya” sining tashkil etilishi zaminida Xorazm vohasidagi ilm va fan taraqqiy eta boshlashi natijasida bu hududga boshqa davlatlardan ham ilm ahlining to‘planish jarayoni bevosita bog‘liqligi dalillanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” teleradiokanali DM tomonidan 2024–2025-yillarda efirga uzatilgan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Millat va ma‘naviyat” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 05-09-450-son ma‘lumotnomasi). Natijalar Tadqiqotda ilgari surilgan goyalardan Afrig‘iylar sulolasi vakillari tamg‘alarini boshqa hududlardan topilgan tamg‘alar bilan qiyosiy solishtirish va uning ildizini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot aprotatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferensiya va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprotatsiyadan o‘tgan.

Natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, impakt-faktorli xorijiy jurnalda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob‘ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e‘lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Quyi Amudaryo hududi ilk va rivojlangan o‘rta asr manbashunoslik va tarixshunosligi”** deb nomlangan. Uning *“V-XI asrlar aholi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning manbashunoslik va tarixshunosligi”* deb nomlangan birinchi paragrafida mavzuga oid yozma manbalar xronologik izchilikda hamda manbaning tili jihatidan tizimlashtirish asosida tahlil qilib chiqilgan.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning eng muhim tabiiy-geografik hududlaridan biri sanaladi. Ushbu vohaning shakllanish jarayoni va tarixiy rivojlanish bosqichlari geologik qatlamlar, yozma tarixiy hujjatlar hamda arxeologik tadqiqotlar asosida puxta o‘rganilgan. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, bu hududda insoniyat faoliyati neolit va bronza davrlariga borib taqaladi. Ayniqsa, Kaltaminor va Suvyorgan madaniyatlari Xorazmda qadimiy jamiyatlarning shakllanishi va hayot tarzini ifoda etadi. Geologik tuzilishi neogen davrida shakllangan Xorazm tekisligi unumdor va sernam yer maydonlari orqali qadimgi aholi tomonidan dehqonchilik va sug‘orish tizimlarini shakllantirish uchun qulay hududga aylangan. Ayniqsa, Amudaryo irmoqlari – Uzboy, Aktam, Adjaib o‘zanlari orqali vohaning Kaspiyga tutashgan davri Xorazm vohasining irrigatsion salohiyati shakllanishiga olib kelgan¹⁶.

Miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid arxeologik yodgorliklar – Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bozorqal‘a kabi manzillarda himoya devorlari bilan o‘ralgan, markazlashgan tuzilmalarga ega turar-joylar mavjud bo‘lgan. Bu obyektlar “Kvadrat Vara” nomi bilan Avesto manbalarida tasvirlangan bo‘lib, jamiyatning mudofaa va boshqaruv tizimlari mavjud bo‘lgan davrni aks ettiradi.

Zardushtiylikdagi diniy-siyosiy tushunchalar – “Zantu”, “Dahyu”, “Xshatra” atamalari orqali qadimgi jamiyatdagi ijtimoiy iyerarxiya va hududiy boshqaruv tuzilmalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Avesto “Videvdat” asarida tasvirlangan Yima tomonidan qurilgan “Vara” joylari – o‘simlik, chorva va inson faoliyatini muvozanatli olib borishga imkon yaratgan, muhofazalangan shaharlar edi¹⁷.

Xorazm ilk urbanizatsiya bosqichiga miloddan avvalgi VI-IV asrlarda qadam qo‘ygan bo‘lib, Kayxusrav va Farazman kabi shohlar tomonidan suv ta‘minoti asosida qator shahar va qal‘alar barpo etilgan. Shu asnodan Kaltaminor, Tozabog‘yob,

¹⁶ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Из.Вост.Лит. Наука, 1969. – С. 98

¹⁷ Дьяконов И.М. Предыстория армянского народа. – Ереван, 1968. – С. 53.

Amirobod singari yirik sug'orish tizimlari va ularning atrofida yuzaga kelgan madaniy markazlar shakllangan¹⁸.

Antik davrda rivoj topgan Xorazm shaharlari haqida yunon mualliflari, xususan Gerodot, Gekatey va keyinchalik arab geograflari – al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, Ibn Xurdodbek va boshqalar boy ma'lumotlar qoldirganlar. Ularning esdaliklarida Jurjoniya, Mizdaxqon, Kat, Hazarasp kabi shaharlarning mudofaa inshootlari, sug'orish tizimlari, jome' masjidlari va bozorlar haqida izohlar mavjud.

Xorazmda Afrig'iyalar sulolasi hukmronligi ostida (milodiy IV-X asrlar) madaniy va xo'jalik hayot yuqori darajada taraqqiy etgan. Pil-qal'a, Burgutqal'a, Qumbosganqal'a singari markazlar dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy mudofaa tizimlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar bu yodgorliklarda "Ko'shk" tipidagi istehkomlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi¹⁹.

Amudaryo o'ng va so'l sohili bo'ylab joylashgan qal'alar, masalan, Tuproqqal'a, Katqal'a, Hazorasp va boshqalarda VII-VIII asrlarda madaniy hayot davom etgan. Arxeologik qazilmalardan ma'lum bo'lishicha, bu markazlarda joylashgan qishloq jamoalari mustahkam infratuzilmaga ega bo'lib, savdo, sug'orish va diniy faoliyat markazlari bo'lgan²⁰. Xorazmning bu davrdagi taraqqiyot xususiyatlarini arab sayyohlarining qaydlarida ham kuzatish mumkin. Ibn Fadlon, al-Balozuriy va al-Muqaddasiylar Xorazmning shaharsozlik, savdo aloqalari va me'morchilik an'analari haqidagi tafsilotlarni yozib qoldirishgan. Jumladan, Jurjoniya va Mizdakxon savdo yo'llarining markazi sifatida muhim rol o'ynaganligi qayd etilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining "*Abu Rayxon Beruniyning asarida sulolalar boshqaruvi va ijtimoiy turmush tarzi talqini*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Abu Rayxon Beruniyning "Osor ul-boqiya" ("O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida ilk o'rta asrlarda hukmron bo'lgan Afrig'iy hukmdorlarning ismlari, olib borgan siyosatlarini, urf odatlari, bayramlari, yil, oy, kunlarning nomlari qayd etilgan. Xorazmda mavjud taqvim, uning hisoblanishi boshqa xalqlarga nisbatan qiyosiy solishtirgan holda bayon etilgan. Abu Rayhon Beruniy xorazmliklarning oy va yillarni hisoblashda katta yutuqlarga erishganliklarini va bu munajjimlarning o'ldirilib yuborilishi natijasida xorazmliklarda oy va kunlarni hisoblashda ko'p adashishlar bo'lganligini ko'rsatib o'tgan.

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida forslar, yahudiy, xristian, zardushtiylar, arablarning yil hisoblarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi ixtiloflarni ko'rsatib o'tgan. Shu jihatdan qadim tarixni ham bayon qilib o'tib, ajdodlar uchun katta tarix sahifalarini yozib qoldirgan.

Qadimgi Xorazmliklar yil hisobini hisoblashdagi o'zgarishlarni ko'rsatib bergan. Xorazmliklar dastlab yil hisobini Xorazmga odamlar kelib joylashganidan boshlaganliklarini ko'rsatib o'tgan. Xorazmga odamlarning kelib joylashganini Iskandar erasi²¹ bilan quyidagicha tushuntirgan: "Ular Xorazmga odamlar joylasha

¹⁸ Гулямов Я.Г. Древнехорезмийские поселения. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 105.

¹⁹ Толстов С.П. Земледельческая культура Хорезма. – М.-Л.: АН СССР, 1962. – С. 145.

²⁰ Неразик Е.Е. История поселений Хорезма в раннем средневековье. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 121.

²¹ Iskandar erasi – Salavka I ning Bobilni bosib olgan vaqti, ya'ni mil. avv. 312-yil bilan boshlangan. Bu Salavkiylar erasi deb ham ataladi. Arshakiylar, Arab astronomlari va bir qator xalqlarda "iskandar erasi" dan yil hisoblangan.

boshlaganidan yil hisoblaganlar, bu Iskandardan to‘qqiz yuz sakson yil ilgari sodir bo‘lgan. Undan keyin Siyovush ibn Kaykobusning Xorazmga kelishidan, Kayxisrav va uning nasli Xorazmga podshohlik qilishidan yil hisoblaganlar. Shu vaqtda Kayxisrav Xorazmga ko‘chib, turk podshohligida o‘z hukmini o‘rnatgan edi. Bu vokea Xorazmga odam joylashishidan to‘qson ikki yil keyin bo‘ldi. So‘ngra ular yil hisoblashda forslarga ergashib, shohlar deb ataluvchi Kayxisrav naslidan bo‘lgan har bir podshohning hukm surish yilidan boshlaganlar. Nihoyat Kayxisrav naslidan bo‘lgan Afrig‘ podshohligi boshlandi. Keyin xorazmliklar Afrig‘ va uning avlodi podshohligidan yil hisoblaganlar²²”.

Beruniy asarida Xorazm davlatining poytaxti Fir qasri Kat shahrida qurilganligi haqida ma‘lumotlar bor. Arxeologik tadqiqotlar natijasida uning IV asrda bunyod etilganligi aniqlangan. Asarda quyidagicha berilgan: “Afrig‘ al-Fir o‘ziga qasr qurdi. U Aleksandr erasi bo‘yicha 616-yilda yuz bergan. Yil hisobini Afrig‘ avlodlari uning hukmronligi davridan boshlaganlar. Al-Fir qasri Xorazmdagi shaharning chekkasida qurilgan bo‘lib, loy va xom g‘ishtdan bunyod etilgan. Uchta mudofaa devori bo‘lib, bir-biri ichiga joylashgan. Ular bir biriga nisbatan baland qilib qurilgan. Eng balandi podsho saroyi bo‘lgan. Bu qasr Yamandagi G‘umdon qasriga o‘xshagan, bu yerda u tubbalarning turgan joyiga kelganda bo‘lgan²³.

Asarda berilgan shohlarning nomlari arxeolog, lingvist va sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Afrig‘iylar sulolasiga mansub 22 ta podshoh 305-yildan 995-yilgacha hukmron bo‘lganliklari ko‘rsatilgan²⁴. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan tangalar va ostodonlardagi shohlarning nomlarini o‘qib, tadqiqotchilar Beruniy asarida berilgan shohlarning nomlari to‘liq emas degan fikrga kelishgan. Shu bilan birga, shu vaqt davomida Xorazmda ikkita sulola hukmronlik qilgan. Birinchi sulola vakillari nomlari noma‘lum, ikkinchi sulola esa, afrig‘iylar deb ko‘rsatilgan. Birinchi sulola mil. avv. 20 yoki 10 yildan hukmronlikni boshlagan deb ko‘rsatilgan²⁵.

Dehqonchilik va chorvachilik ishlarini boshlash vaqtini aniq bilish zarurligi ta‘kidlab, bularning hammasi yoritqichlarga, ya‘ni osmon jismlarning harakatiga bog‘liq deb ko‘rsatadi. Xorazmliklarning munajjimlari ilk o‘rta asrlarda yil hisobini, ya‘ni qachon qanday dehqonchilik ishini boshlash lozimligini aniq bilishgan, keyinchalik esa bunday ilmga ega bo‘lmagan inson qolmagach, bayramlar nishonlanadigan vaqtlar ham vaqt o‘tib o‘zgarib ketganligini ko‘rsatib o‘tgan. Kabisa yillari vaqt o‘tib ko‘payib, kunlarni sanasa butunlay boshqa faslga to‘g‘ri kelgan, bu esa ekin ekish vaqtlarini aniqlashda muammolar keltirgan. Abu Rayhon Beruniy shunday paytlarda podshohlar qanday yo‘l tutganliklarini ham bayon qilgan. Xorazmshoh munajjimlar maslahati bilan rimliklar va suryoniylarning oylari kabi

Iskandardan yilni hisoblash Suriya hujjatlarida XX asrgacha davom etgan // wikipedia.org/wiki/Эра_Селевкидов. Murojaat vaqti: 25.08.2024.

²² Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan ёдгорликлар (Осор ал-боқия). – Б.69.

²³ Миль – инглизларнинг ўлчов бирлиги бўлиб, “мингдан бир бўлак” деган маънони беради. Бир мил 1609,344 метрга тенг // wikipedia.org/wiki/Мил. Murojaat vaqti. 13.08.2024.

²⁴ Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. (Осор ал-боқия). – Б. 430.; Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Б.122.

²⁵ Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. 2020. – Б.430.

kabisali yilni joriy qilgan. Bu voqea Beruniy ma'lumotida Iskandar erasining ming ikki yuz yetmishinchi yilida bo'lib o'tgan deb ko'rsatilgan²⁶.

Dissertatsiya birinchi bobining "Arxeologik tadqiqotlarda ijtimoiy turmush tarzining yoritilishi" deb nomlangan uchinchi paragrafida ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarni arxeologik jihatdan o'rganilganligi va uning ijtimoiy turmush tarzini yoritishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

XX asrning 40-50 yillarida S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan. XX asrning 40-yillarida ilk o'rta asrga oid yodgorliklar Burgutqal'a vohasi hududidan topilgan. Burgutqal'a vohasi eni tor bo'lgan 17 km uzunlikda joylashgan bo'lib, Katta Qirqqiz kanali bo'yidan janubda Qubosganqal'agacha, shimolda Uy qal'agacha borgan²⁷. Burgutqal'a vohasi qadimgi davrda ham aholi zich joylashgan hudud hisoblangan. Ilk o'rta asrlarda ham bu hududda aholi istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk o'rta asrlarga oid 100 ga yaqin yodgorlik aniqlangan²⁸.

Qo'rg'onlarda erkin dehqonlar katta oilalari bilan birgalikda istiqomat qilganlar. Donjonlar tinchlik vaqtida omborxonalar vazifasini ham o'tagan. U yerda qamalda qolgan vaqtda foydalanishlari uchun donlar va suv g'amlab qo'yilgan. 1937-yilda A.I.Terenojkin tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida bir qo'rg'onning 13 m² maydoni 3 ta katta va 2 ta kichik xonalarga ajratilganligi va 5 ta xonadan 4 tasi yo'lakka chiqqanligi aniqlangan. Bir xonada o'choq izlari aniqlangan. Qolgan barcha xonalarda suli, quritilgan nok, qovoq aniqlangan. № 2-raqam bilan belgilangan xonada 14 ta katta hajmdagi xum aniqlangan. Ularda suv saqlangan. № 4-raqamli xonaga kirish eshigining ikkita tomonida ko'plab loy bo'laklari topilgan. Ularda o'tirgan odam tasviri tushirilgan²⁹.

Teshikqal'a VI-VII asrlarda qurilgan bo'lib, 1 gektar maydonni egallagan. Teshikqal'a mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan³⁰, oval shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Mudofaa devorining yuqori qismi tishsimon tarzda ishlangan, bunday bezaklar shinaklarning ustida ham kuzatiladi. Mudofaa devorlari paxsadan tiklangan. Qal'a burjlari oval shaklida bo'lib, ularning asosi qal'a devori diagonalini davom qildirgan. Burjlar baland emas, tepa qismi tekis qilib yopilgan, ular jang uchun mo'ljallanmagan. Antik davr yodgorliklaridagi burjlarning qurilishidan tubdan farq qiladi, antik davrda burjlar jang qilishga to'liq moslashtirilgan bo'lgan. Tashqi devorning ichki tomonidan yana bir devor qurilgan bo'lib, u tashqi devorga nisbatan ensiz, lekin balandligi bir xil bo'lgan³¹.

Antik davrning yirik shahri Tuproqqal'a milodiy V-VI asrlarda inqrozga uchragan bo'lsada, uning atrofida afrig'iylar sulolasi hukmronligining oxirgi davrida hayot davom etgan. VII asrga kelib Tuproqqal'a shahrida odamlar istiqomat qilmay

²⁶ O'sha asar. – B. 270.

²⁷ Болелов С.Б., Коврижкина М.М., Никифоров М.Г. Количественная оценка топографии Беркут-калинского оазиса (Хорезм) применительно к целям историко-археологических исследований. – С. 65.

²⁸ Итина М.А., Левина Л.М., Незарик Е.Е., Рапопорт Ю.А. К 60 – ти летию Хорезмской археолого – этнографической экспедиции. – С. 34 – 44.

²⁹ Толстов С.П. Древний Хорезм... – С.132.

³⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм... – С.138.

³¹ O'sha joyda.

qo'yadi. Bu yer keyinchalik dahmaga aylangan. Bu esa, ilk o'rta asrlarda hayot shaharlardan qishloqlarga ko'chgan degan xulosani beradi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu davrda yerga egalik munosabatlari shakllangan.

Milodiy IV asrning oxiri – VIII asrning boshlariga oid sopolidan ishlangan haykalchalar arxeologlar tomonidan kam topilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shu davrga oid 7 ta sopol haykalcha topilgan³². Ularning to'rttasida erkak kishining tasviri, xo'roz va ot tasvirlangan³³. Sopol idishlarning tashqi qismi oddiy chiziqlar yoki bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu sopol buyumlarni ishlab chiqarishdagi tushkunlikni o'zida aks ettiradi. Bu hududga ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi bilan bog'liq, bu davrda butun O'rta Osiyoda shunday hayot tarzi kuzatilgan.

To'qqal'a yodgorligi Nukus shahridan 14 km shimoliy-g'arb tomonda, To'qtoq tepaligi ustida qurilgan. Uning hududi 8 gektar bo'lib, antik va ilk o'rta asrlarga oid. Bu shaharning qabristoni ham aniqlangan³⁴. Yodgorlikning uchta madaniy qatlami aniqlangan: 1. Mil. avv. IV-III asrlar; 2. Milodiy II-III asrlar; 3. Milodiy VII-VIII asrlar.

VIII asrda Kerderning ta'siri Burgutqal'a vohasida ko'rinadi. Bu davrda kerderning qo'lda ishlangan sopol idishlari Burgutqal'adan ko'plab topilgan. Shu bilan birga kerder aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan, Burgutqal'a vohasida ham shu davr madaniy qatlamlarida ko'plab chorvalarning izlari aniqlangan. Vohada uylarning aksariyati, shu jumladan Yakka Parsonda ham qayta qurilib, keng hovli, ya'ni chorvani saqlaydigan joylar qurilgan. Burgutqal'a vohasidagi bunday o'zgarishni tadqiqotchilar Xurzodning g'alayoni bilan bog'laydilar, chunki kerder madaniyati aholisi bu hududga kirishi jarayonida qo'rg'on va ko'shklarda yong'in izlari aniqlangan. Keyingi bosqichda esa, bu binolar aholi tomonidan qayta o'zlashtirilganda deyarli hamma joylarda bir xil oddiy hayot tarzi davom etganligi kuzatilgan. Bu belgilarni ham tadqiqotchilar mazdakiylik harakati bilan bog'laydilar³⁵.

Katta Qirqqiz qal'ada 2019–2023-yillar davomida Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Davlat Sharq san'ati muzeyi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti hamkorlikda tuzilgan Janubiy Orol Qoraqalpog'iston – Rossiya kompleks arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan tadqiq qilingan³⁶.

Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustahkamlangan kichik qo'rg'onchalarda istiqomat qilganlar. Xorazmda ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topilgan.

³² O'zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2023. – B.143.

³³ Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи. – Рис. 55-57.

³⁴ Гудкова А.В., Ягодин В.Н. Археологические исследования на городище Ток-кала в 1959 г. // ОНУ. – Ташкент, 1961. – № 5. – С. 49-58.; Гудкова А.В., Ягодин В.Н. Археологические исследования правобережной дельты Амударьи в 1958–1959 гг. // МХЭ. Вып. 1. – М., 1963. – С. 248-258.

³⁵ Гудкова А.В. Ток-кала. – С.123.

³⁶ Болелов С. Б., Ягодин В. В., Болганова М. С. Археологические исследования на городище Большой Кырк-Кыз в Правобережном Хорезме в 2021 году // Восток. Афро-Азиатские общества: история и современность – 2022. Выпуск 1. – С. 23-35 [Электронный ресурс]. URL: <https://vostokoriens.jes.su/S086919080018406-3-1> (дата обращения: 20.01.2025). DOI: 10.31857/S086919080018406-3

Dissertatsiyaning “Janubiy Orolbo‘yi ilk va o‘rta asr jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan ikkinchi bobining “*Quyi Amudaryo havzasida ilk va o‘rta asr jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanish bosqichlari*” sarlavhali birinchi paragrafida Quyi Amudaryo havzasi V-XI asrlar oralig‘ida O‘zbekiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy jarayonlarning shakllanishida muhim geohududiy markaz bo‘lganligi ko‘rib chiqilgan. Bu davr mobaynida Xorazm vohasida qadimiy dehqonchilik, hunarmandchilik, kulolchilik va shaharsozlik madaniyatining bosqichma-bosqich taraqqiy etganligi kuzatiladi. Ayniqsa, Xorazm ekspeditsiyasi natijalari asosida tarixiy manbalarning nazariy va qiyosiy tahlili ushbu taraqqiyot dinamikasini ochib beradi. Neolit va eneolit davrlarida Burli-3, Jonbos-4 kabi manzilgohlar asosida shakllangan urug‘-jamoalar xo‘jaligi, ilk bosqichda ovchilik, termachilik va chorvachilik kabi iqtisodiyot turlari bilan shug‘ullangan. Bu jamoalar, asosan, tabiiy resurslarga boy tog‘ etaklarida (masalan, Sulton Uvays tog‘i) joylashgan bo‘lib, tabiiy landshaftdan foydalanishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikni namoyon etgan.

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Kaltaminor madaniyati asosida ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tilgan. Bu jarayon “qayr” dehqonchiligi va yog‘och ustunli yarim yerto‘la turar-joylar qurilishi bilan belgilanadi. Shu tariqa, vohada Suvyorgan, Tozabog‘yob, Amirobod madaniyatlari shakllanib, ular o‘ziga xos arxitektura, kulolchilik va metallga ishlov berish an‘analariga ega bo‘lgan³⁷.

Bronza davrining ikkinchi yarmida, ya‘ni miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda, ushbu madaniyatlarning bir-biriga ta‘siri ortib, yirik qishloq markazlari va manzilgohlar vujudga kelgan. Masalan, Yakka-Parson-2 yodgorligi mehnat qurollarining bronza materialidan ishlanishi bilan ajralib turadi va ishlab chiqarishga asoslangan jamiyat modelini ko‘rsatadi³⁸.

Ilk temir davriga o‘tish jarayoni miloddan avvalgi IX-V asrlarda sodir bo‘lgan bo‘lib, bu davrda Sariqamishbo‘yi va Janubiy Oqchadaryo hududlarida mudofaa inshootlari (masalan, Odoytepa va Qang‘qal‘a) qurilgan va bu mahalliy boshqaruv tizimining shakllanishidan dalolat beradi. Shu tariqa, patriarxal va diniy “kohin” boshqaruv modellari shakllangan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Xorazm hududi Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Ammo V asrdan boshlab mustaqil siyosiy markaz sifatida Xorazm davlati Kayxusrav, Farazman kabi hukmdorlar boshchiligida shakllangan. Ushbu davrda o‘ng va so‘l sohilda magistral sug‘orish inshootlari va ularning atrofida shaharlar (Tuproqqal‘a, Bozorqal‘a, Hazorasp, Xiva va boshqalar) qurilib, sug‘orish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta‘minlangan. Milodiy IV asrga kelib, Siyovushiyalar sulolasi o‘rniga Afrig‘iyalar sulolasi hokimiyatga keladi. Bu sulola V-IX asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kengayishida muhim rol o‘ynagan. Jumladan, “Ko‘shk” va “Qo‘rg‘on” tipidagi kichik qishloq joylashuv shakllari tarqalgan. Shuningdek, IX-XI asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizim diversifikatsiyalashgani holda shaharsozlik keng miqyosda rivojlanmagan³⁹.

³⁷ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 112

³⁸ Ртвеладзе Э.В. История Хорезма и Согдианы. – Ташкент: ФАН, 1999. – С. 67

³⁹ Неразик Е.Е. История поселений Хорезма в раннем средневековье. – Ташкент: Наука, 1976. – С. 121

Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi paragrafida *“Aholining turmush tarzi va uning moddiy manbalarda yoritilishi”* mavzusi ochib berilgan. Ilk oʻrta asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzida yuz bergan oʻzgarishlar Oʻrta Osiyo aholisining, shu jihatdan Xorazm davlatining ham ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy hayotida tub oʻzgarishlarga olib keldi. Bu davrda yangi tabaqa vakillari mahalliy mulk egaligi – dehqonzodalar shakllangan⁴⁰. Ular asosida qishloq hokimliklari tarkib topib, hudud boshqaruvida ularning roli ortib borgan.

Ilk oʻrta asrlarda Xorazm vohasida qadimgi davr taraqqiyotidan tubdan farq qiladigan yangi madaniyat shakllangan. Qishloq xoʻjaligi taraqqiy etib, qishloqlarning tashqi qiyofasi ham oʻzgargan. Qishloqdagi uylarning tashqi koʻrinishini oʻzgarishiga dastlabki sabablardan biri – dehqonlarning katta oilasi shakllangan. Boy dehqon tabaqasi katta yerlarga ishlov berishi uchun oʻziga xizmatkorlar yollagan. Qalʼa – qoʻrgʻon atrofida aholining uylari bunyod etilgan. Aholi dehqonzodaga xizmat qilgan, dehqonzoda va uning mulkini qoʻriqlash uchun jangchilarga ham ega boʻlgan. Bu davrda jangchilar *“chokar”* deb atalgan⁴¹.

Chap qirgʻoq Katqalʼada olib borilgan tadqiqotlar natijasida, uning soʻnggi antik davrda qurilgan uchta mahallasida ilk oʻrta asrlarda ham hayot davom etganligi aniqlangan. Shaharning sharqiy qismida markaziy koʻchadan shimolda va janubda joylashgan ikkita mahalla va uning gʻarbiy qismida hunarmandlar mahallasi joylashgan. Arablar istilosi arafasida shaharda hayot inqrozga uchragan. Bu davrda mudofaa devorlari zardushtiyularning nausi, yaʼni ostodonlar qoʻyish uchun foydalanilgan⁴².

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining oxirgi paragrafi *“IV-XI asrlardagi siyosiy jarayonlarning hududga taʼsiri”* deb nomlangan.

Xorazm vohasida tangalarning zarb qilinishi ham yuedji qabilalarining Oʻrta Osiyoga kirib kelishi bilan bogʻliq boʻlgan. N.Veselovskiy kidariylar va eftaliylarni Xorazm hududi bilan bogʻliq deb hisoblaydi. P.I.Lerx va N.Veselovskiylar xoalatlarni xorazmliklar yoki Xorazmda oʻrnashgan eftaliylar ekanini aytadi⁴³. Ular oʻz tadqiqotida Maqdisiyning oʻng qirgʻoq Xaytal oʻlkasi, Xaytaliya shahri Xorazm bilan bogʻliq boʻlgani haqidagi xabariga tayangan.

